

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SHAROFOVA DIYORA FURQATOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “MEHMONDO‘STLIK”
KONSEPTINING FRAZEOLGIK BIRLIKLARDAGI
LINGVOMADANIY TAHLILI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)
in Philology**

Sharofova Diyora Furqatovna

Ingliz va o‘zbek tillarida “mehmondo‘stlik” konseptining frazeologik birliklardagi lingvomadaniy tahlili..... 3

Шарофова Диёра Фуркатовна

Лингвокультурологический анализ концепта «гостеприимство» во фразеологических единицах английского и узбекского языков 23

Sharofova Diyora Furkatovna

Linguacultural analysis of the concept of “hospitality” in phraseological units of English and Uzbek languages 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 50

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SHAROFOVA DIYORA FURQATOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “MEHMONDO‘STLIK”
KONSEPTINING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDAGI
LINGVOMADANIY TAHLILI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.1.PhD/Fil4388 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdhti.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xolmuradova Leyla Eshkuvatovna**
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Bushuy Tatyana Anatolyevna**
filologiya fanlari doktori, professor

Mamatov Abdi Eshankulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "_____" _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "_____" _____ dagi №__ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'. Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (filologiya fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XXI asrda globallashuv jarayonida olib borilayotgan lingvistik izlanishlarda tilning madaniy tarkibiy qismini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ma'lumki, til har bir xalqning ma'naviy va madaniy rivojlanishini aks ettiradi. Shu jihatdan, har bir etnik madaniyat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uni aks ettiruvchi til ham betakror hisoblanadi. Etnomadaniyatning o'ziga xos xususiyatlari tilning frazeologik tarkibida o'zining yorqin ifodasini topadi. Shu bilan bir qatorda qiyosiy tipologik tilshunoslikda konsept olamning lisoniy manzarasi mahsuli ekanligi, kognitiv tilshunoslikda konseptning izohi va uning tavsifiy belgilarini yoritib berish, lingvokulturologiya til va madaniyat konseptlarining munosabatlari haqidagi fikrlarni ilgari surish, ingliz va o'zbek tillarining frazeologik boyligi asosida "mehmondo'stlik" konseptining milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish tilshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Dunyo tilshunosligida o'rganilayotgan "mehmondo'stlik" konsepti jahon sivilizatsiyasi singari qadimiy va chuqur ildizga ega bo'lib bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Uning rivojlanishi, nafaqat madaniy qadriyatlar o'chog'i bilan, balki bugungi kunda "turizm mehmondo'stlik" sohasining rivojlanishi bilan bog'liqligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, "mehmondo'stlik" konseptini lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish katta ahamiyatga ega bo'lib, uning asosiy mohiyati tillararo va til ichidagi iboralar nazariyasining umumiy asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, uning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar doirasida milliy xarakterning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ingliz va o'zbek frazeologizm va paremiyalarida "mehmondo'stlik" konseptining leksik-semantik hamda kognitiv maydoni ochib berish, "mehmondo'stlik" konseptining ingliz va o'zbek maqol va iboralarida ifodalanishini yoritish tilshunoslik sohasida zaruratga aylanmoqda.

Mamlakatimizda tilshunoslik sohasida, jumladan, qiyosiy-tipologik tahlil, shuningdek, etimologik va konseptual tahlil bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. "O'zbekistondagi millat va ellatlarning tilini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart sharoitlar yaratish, til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari va istiqbolli vazifalari belgilab berildi"¹. Natijada dunyo bo'yicha globallashuv jarayonida mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-ma'rifiy, siyosiy, madaniy rivojlanish rivojlanish masalalarini har tomonlama o'rganish har doimgidan ham dolzarblik kasb etmoqda. Shu bois, til tadqiqi doirasida lug'atlarni yanada boyitish, madaniyatni rivojlantirish, til sofliгинi ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlar doirasida izlanishlar olib borish uchun ko'pgina imkoniyatlar yaratilmoqda. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili jahon tilshunosligining tarkibiy qismi hisoblangan ingliz va o'zbek tillari materialida "mehmondo'stlik" konseptini qiyosiy aspektda o'rganishga bag'ishlanganligi bilan ham dolzarblik kasb etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni. Xalq so'zi gazetasi, 2020 – yil 21- oktabr, №221-222 (7723-7724), <https://lex.uz/docs/-5058351>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 - yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 610-son, 2018-yil 10-oktabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarini o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi 816-son qarorlari hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Taqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Zamonaviy tilshunoslikda lingvomadaniy va kontseptual atamalarning kelib chiqishi bilan bog‘liq bir qator muammolar faol o‘rganilmoqda va ko‘plab olimlar, G.Lakoff, V.Gumbolt, Ch.Filmor, A.Kruz, V.Kroft², shuningdek, D.S.Lixachov, I.A.Sternin, Ye.A.Ogneva, S.G.Vorkachov, Yu.A.Sorokin, V.A.Pishalnikova, Z.D.Popova, E.S.Kubryakova va boshqalar, hamda mahalliy tilshunoslar, Sh.S.Safarov, D.U.Ashurova, M.R.Galiyeva, Sh.N.Mahmudov, A.E.Mamatov, O‘.Q.Yusupov, Sh.R.Usmonova, D.Xudoyberganova, M.M.Raxmatova³ va boshqalar, mazkur muammoni o‘rganishga sezilarli hissa qo‘shganlar.

²Lakoff. G and Johnson. M . “Metaphors we live by” – Chicago: The university of Chicago press, 1980. – P. 3-4.; Alan Cruse and William Croft. Cognitive Linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 356 p.; Fillmore Ch.J.Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul, 1982. – P. 111-137.; Humbolt W. On language: On the Diversity of Human Language Construction and its Influence on the Mental Development of the Human Species. (translated by Peter Heath) – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 544 p.; Croft William. Typology and universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 27 p.

³ Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка //Русская словесность: Антология. М.: Academia, 1997. - 196 с.; Стернин И. А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж, 1999. – С. 30.; Огнева, Елена Анатольевна. "Концепты-доминанты как информативные конструкты текстовых миров. М.: Эдитус, 2019.; Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. 2001. №1. – С. 64-72.; Сорокин Ю. А. Этническая конфликтология. — Самара: Русский лицей, 1994. — 94 с.; Пищальникова В. А. Концептуальный анализ поэтического текста. Барнаул, 1991.— 88 с.; Попова З.Д., Стернин И.А. Язык и национальная картина мира. Воронеж: Истоки, 2002. - 318 с.;

Ushbu konseptning turli madaniyat va tillardagi qiyosiy tahlili G.R.Garipova, R.D.Yunusova, L.K.Bayramova, Y.Sh.Kalniyazov⁴ kabi bir qator tadqiqotchilarning ishlarida o‘z aksini topgan. Biroq, o‘zbek tilshunosligida “mehmondo‘stlik” konseptining lingvomadaniy, qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan ishlar deyarli mavjud emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining “Qiyosiy tilshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek frazeologik olam manzarasida “mehmondo‘stlik” kontseptining semantik va milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy – chog‘ishtirma aspektda aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o‘zbek frazeologik birliklarini “mehmondo‘stlik” konsepti asosida leksikografik manbalardan foydalangan holda lingvomadaniy tahlil qilish;

“mehmondo‘stlik” konseptining kognitiv komponentlarini frazeologik olam manzarasining bir qismi sifatida tavsiflash;

ingliz va o‘zbek frazeologik birliklarida “mehmondo‘stlik” konseptining milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash va tavsiflash;

chog‘ishtirilgan tillar olamining frazeologik manzarasida “mehmondo‘stlik” konseptining etnomadaniy xususiyatlarini o‘rganish.

Tadqiqotning obykti "mehmondo‘stlik” konseptini ifodalovchi ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar hisoblanadi.

Tadqiqot predmetini ingliz va o‘zbek tillarining frazeologik fondida “mehmondo‘stlik” konsept faollashuvining lingvokulturologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada taqqoslash, to‘liq tanlov, frazeologizmlarni identifikatsiya qilish va lingvomadaniy tahlil usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek lisoniy madaniyatida mehmondorchilik bilan bog‘liq milliy-madaniy konseptlar umumiy va milliy ko‘rinishda namoyon bo‘lishi aniqlanib, umumiy shaklda umuminsoniy qadriyatlar asosida namoyon bo‘lsa, milliy shaklda ma’lum bir xalqning madaniyati va dunyoqarashini namoyon etib kelishi hamda ushbu konseptlarning lisoniy - madaniy hodisa sifatida turli xalqlarning tafakkur tizimini ham ochib berishi isbotlangan;

ingliz va o‘zbek frazeologizm va paremiyalarida ingliz tilida “hospitality”, o‘zbek tilida “mehmondo‘stlik” konseptining leksik, morfologik, denotativ va

⁴ Гарипова Г. Р. Концепт «Гостеприимство» в русском и английском языках (на материале фразеологизмов): спец. 10.02.20 «Сравнительно-историческое, типологическое и сопоставительное языкознание: автореф. дис. ... канд. филол. наук, Уфа, 2010. – 226 с.; Юнусова Д. Аксиология фразеологизмов со значением гостеприимство кунакчылык в русском и татарского языках. Казанский государственный университет, Казань, 2009. Автореферат. – 22 с.; Байрамова Л.К., Юнусова Р.Д. Человек гостеприимный: ценности и модели поведения (на материале русских и татарских паремий) // Ученые записки Казанского государственного университета. – Том 150, кн. 2: Гуманитарные науки. – 2008. – С. 90 – 91. Е.Ш. Калниязов // Классификация паремий о гостеприимстве // Зарубежная лингвистика и лингводидактика. Issue – 2 № 2 (2024). – С. 8-14.

konnotativ ma'nolarini ifodalovchi semantik maydon hamda bibleizmlar, mifologizmlar, lotinizmlar tarkibidagi frazeologizmlarda ifodalagan kognitiv maydoni aniqlanib, ingliz va o'zbek xalqlarida mehmon kutish jarayonlarining o'zaro lingvomadaniy o'xshash va madaniyatlararo muloqotdagi farqli jihatlari aniqlangan;

ingliz va o'zbek frazeologik fondidagi "mehmondo'stlik" konseptining milliy mentalitet va milliy madaniyatga asoslangan etnomadaniy muloqot, punktuallik, shaxsiy chegara kabi farqlari ingliz tilida "guest", "host", o'zbek tilida "mehmon", "mezbon" kabi leksik, lisoniy va madaniy bo'yoqdorlikni ifodalovchi frazeologik va milliy qadriyatlarni ochib berishga xizmat qiluvchi paremiologik qatlamlari orqali ochib berilgan;

tilning lisoniy vositalar orqali ijtimoiy qadriyatlarni va mehmondo'stlik me'yorlarini yetkazishning madaniyatlararo muloqotdagi roli ochib berilib, ularning inson va jamiyatga subyektiv - emotsional ta'siri hamda muloqot shakllarini qurishga lingvomadaniy jihatdan yordam berishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"mehmondo'stlik" konseptiga oid ingliz va o'zbek frazeologik birliklarining milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi;

"mehmondo'stlik" tushunchasidan foydalangan holda frazeologik materialni tahlil qilish metodologiyasi turli tizimli tillarning konseptual aloqalarining boshqa turlarini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha tuzilgan xulosalarning to'g'riligi muammoning aniq bayoniga, qo'llaniladigan yondashuv va usullarga, tavsiflovchi, qiyosiy, kontseptual usullardan foydalangan holda olib borilgan tahlillarga, shuningdek, nazariy g'oyalar, xulosalar va natijalarni tasdiqlashga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan konseptual tahlil usuli madaniyatlararo muloqotni chuqurroq o'rganish, milliy mentalitetlar o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklarni aniqlash, hamda lingvomadaniy xususiyatlarni tahlil qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi va bu uslubiy yondashuv ingliz va o'zbek xalqlarining madaniy tafakkurini qiyosiy nuqtai nazardan o'rganish imkonini beradi va mazkur yo'nalishda o'qitiladigan fanlar: madaniyatlararo muloqot, lingvomadaniyatshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, qiyosiy tipologiya bo'yicha nazariy bilimlarni boyitadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tilshunoslik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishda asosiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin hamda ushbu yondashuv orqali o'quvchilar faqatgina tilni emas, balki til orqali ifodalanadigan milliy madaniyat va mentalitetni chuqurroq anglab yetadilar, natijada ularning til o'rganish jarayonida madaniyatlararo kompetensiyasi ortadi, bu esa amaliy kommunikativ vaziyatlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlariga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillarida “mehmondo‘stlik” konseptining frazeologik birliklardagi lingvomadaniy tahlilini aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek lisoniy madaniyatida mehmondorchilik bilan bog‘liq milliy-madaniy konseptlar umumiy va milliy ko‘rinishda namoyon bo‘lishi aniqlanib, umumiy shaklda umuminsoniy qadriyatlar asosida namoyon bo‘lsa, milliy shaklda ma‘lum bir xalqning madaniyati va dunyoqarashini namoyon etib kelishi hamda ushbu konseptlarning lisoniy - madaniy hodisa sifatida turli xalqlarning tafakkur tizimini ham ochib berishiga oid tahlil natijalaridan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-381 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universiteti, 2024-yil, 18-dekabrda 04/3781-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, o‘zbek va ingliz tillarida olamning lisoniy manzarasini qiyosiy tahlil qilish jarayonida o‘rganilayotgan tushunchaning milliy o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilishga doir xulosalar loyiha doirasidagi kurslarga tatbiq qilingan;

ingliz va o‘zbek frazeologizm va paremiyalarida ingliz tilida “hospitality”, o‘zbek tilida “mehmondo‘stlik” konseptining leksik, morfologik, denotativ va konnotativ ma‘nolarini ifodalovchi semantik maydon hamda bibleizmlar, mifologizmlar, lotinizmlar tarkibidagi frazeologizmlarda ifodalagan kognitiv maydoni aniqlanib, ingliz va o‘zbek xalqlarida mehmon kutish jarayonlarining o‘zaro lingvomadaniy o‘xshash va madaniyatlararo muloqotdagi farqli jihatlari aniqlanganligiga oid natijalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta‘lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 19-noyabrda 2554/02-son ma‘lumotnomasi). Natijada, loyihaning kontentini shakllantirishda psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik atamalarining ifodalanishi, ularning tipologik tahlili, o‘zbek va ingliz tilida “mehmondo‘stlik” konseptining ikki tildagi qiyosiy tahlilini frazeologik misollar orqali o‘rganish muhim manba sifatida xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek frazeologik fondidagi “mehmondo‘stlik” konseptining milliy mentalitet va milliy madaniyatga asoslangan etnomadaniy muloqot, punktuallik, shaxsiy chegara kabi farqlari ingliz tilida “guest”, “host”, o‘zbek tilida “mehmon”, “mezbon” kabi leksik, lisoniy va madaniy bo‘yoqdorlikni ifodalovchi frazeologik va milliy qadriyatlarni ochib berishga xizmat qiluvchi paremiologik qatlamlari orqali ochib berilganligiga oid natijalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+585845 EPP-1-2017-ES-EPPKA2-CBHE-JP “CLASS: Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian universities” (CLASS: “Markaziy Osiyo Universitetlarida kompyuter lingvistikasi bo‘yicha magistratura dasturini ishlab chiqish” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 19-martda 741/02-son ma‘lumotnomasi).

Natijada, ingliz va o'zbek tillarning "mehmondo'stligi" ma'nosi bilan frazeologik birliklarning ichki va tashqi lingvistik omillar tufayli tipologik o'xshashliklari va farqli jihatlari, o'zbek va ingliz tillarida olamning lisoniy manzarasini qiyosiy tahlil qilish jarayonida o'rganilayotgan tushunchaning milliy o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi dalillangan va loyihaga singdirilgan;

tilning lisoniy vositalar orqali ijtimoiy qadriyatlarni va mehmondo'stlik me'yorlarini yetkazishning madaniyatlararo muloqotdagi roli ochib berilib, ularning inson va jamiyatga subyektiv - emotsional ta'siri hamda muloqot shakllarni qurishga lingvomadaniy jihatdan yordam berishi to'g'risidagi xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi tomonidan 2024-yil dekabrda e'fira uzatilgan "Assalom Samarqand" teleko'rsatuvi dasturining ssenariyini ishlab chiqishda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasini 2024-yil 17-dekabrda 2789/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, bu ko'rsatuvni tayyorlashda tadqiqot ishida keltirilgan qiyosiy-tipologik jihatdan ingliz va o'zbek tillarida mavjud materiallar bo'yicha "mehmondo'stlik" ma'nosiga ega frazeologik birliklarni ochib berish orqali teleko'rsatuv sifatining yanada oshirilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Ilmiy tadqiqotning asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida taqdim etilgan va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi doirasida jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 8 ta xalqaro va 3 ta respublika nashrlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 147 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, uning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tilshunoslikda konsept tushunchasining izohi**" deb nomlangan birinchi bobida konseptning lingvomadaniy tahlili, psixolingvistik mazmuni va tavsifiy belgilari va uning izohi, shuningdek, til inson tafakkurini ochib beruvchi kalitdir, u orqali shaxs ruhiyatining tabiati, milliy qarashlarining o'ziga xos xususiyati ko'rib chiqilgan.

O'.Q.Yusupovning fikriga ko'ra, "... konsept tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizda shakllangan bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya'ni

baholashlardir. Konsept tushunchasini aysbergga (muzlik) o'xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir”.

Muallif konseptni aysberg bilan tavsiflamoqda “... agar konsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi uning suvostidagi qismiga nisbatan anchayin kichikligini, bu, esa aysberg singari biror so'zni konseptual tahlil qilayotganimizda, avval, uning tilda paydo bo'lgan voqelanishi tushuncha deb qaraladigan bo'lsa, chuqurroq kognitiv talqin qilinganda uning yanada ko'proq mazmuni namoyon bo'laveradi⁵”.

Sh.Safarov: “Konsept ko'p jihatli va ko'p o'lchovli hodisadir. Uning shakllanishi voqelikni bevosita idrok etish jarayonida o'zlashtirilayotgan bilimning inson xotirasidan bilim olishi va ushbu bilimning ma'lum ma'noda mavjud bo'lgan madaniy, axloqiy qadriyatlar bilan moslashuvini taqozo etadi⁶” deb yozadi.

Konsept — bu til hodisasi orqali bevosita ifodalanadigan hodisa bo'lib, uni milliy mentalitet, madaniyat, til, dunyoqarash va intellektual fikrlash bilan bog'liq holda o'rganish kerak.

Konseptni to'g'ri tahlil qilish uchun bu ko'rsatkichlar asosiy ahamiyatga ega, chunki madaniyat orqali milliy o'ziga xoslikni ko'rish mumkin, til orqali fikrlash — insonning fikrlarini, intellektual fikrlash orqali esa, inson ongida aks etgan dunyoqarashni ko'rish mumkin. Tasvirlarni o'rganish ham til va intellektual ong orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, konsept faqat leksik birligi emas, balki inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ko'plab xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi asosiy ob'ektidir.

Shunday qilib, konsept mohiyatini tushunishda to'rtta asosiy yondashuv majud:

- 1) lingvofalsafiy;
- 2) lingvomadaniy;
- 3) psixolingvistik;
- 4) lingvokognitiv⁷

Garchi, konsept atamasi rus tilshunosligida XX asrning 80-yillarida qo'llanila boshlangan bo'lsa-da, bugungi kunga qadar bu haqida aniq izohlar yo'q. S.A.Askoldov-Alekseyev, 1928-yilda ushbu savolni o'rtaga qo'yadi: “Bilim sohasida har doim mavhum bo'lgan bu “noaniq” lik, so'z san'atida naqadar yetarli darajada asosiy qiymatga ega”. Bu orqali konseptning asosiy xususiyatini ta'kidlab o'tadi⁸.

Bugungi kunga kelib, tilshunoslikda konsept atamasining juda ko'p sonli, turli izohlari mavjud. Ularning tahlil natijalariga ko'ra, ko'plab tadqiqotlarda bu atama mentalitetning birligi sifatida qaraladi (2); konsept – bu dunyoqarashning lisoniy kategoriyasi, shu bilan bir paytda “ijodkor” hamda ideal dunyoda, milliy, madaniy mentalitetning mahsulidir (4); konsept – borliqda mavjud bo'lgan obyektlarning ayni andozasi bo'lib, to'plangan bilimlar orqali shakllantiriladi va o'zgartiriladi

⁵ Yusupov O'.Q. Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamaları xususida // Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materillari. – Toshkent, 2011. – B. 49.


⁶Safarov Sh. Semantika. T.: O'zME davlat ilm. nashr., 2013. – 344 b.

⁷ “Baxt” konseptining badiiy matnda voqelanishi va tarjima muammolari (o'zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasi misolida) dissertatsiya. Buxoro, 2023. – S. 16-23.

⁸ Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: Антология // Под ред. проф. В.Н. Нерознака. – М.: Academia, 1997. – С. 267-279.

(5); konsept – bu biz obyekt haqida bilgan barcha narsalardir, bilimlarimizning butun hajmini belgilovchi. Konseptda avvaldan, tipologik obraz yaratuvchi va shakllanuvchi “prototip” (ayni geshtalt-struktura) ontologik jihatdan turkumlanish mavjud” (6); konseptning asosiy turlaridan biri sifatida badiiy konsept qaraladi (7) kabi izohlarni ko‘rish mumkin. Shu tarzda xulosa qilib aytish mumkinki, konsept ham moddiy, ham ma’naviylikni o‘zida namoyon etadi.

Konseptning kognitiv tuzilishi, Z.K.Derbishevaning fikriga ko‘ra, konseptning asosiy qatlamlari, tushuncha yadrosidan shakllanib semantik qatlam, kognitiv qatlam, obrazli-ramziy qatlamning, madaniy qadriyatlar bilan o‘zaro birlashgan holda tarkib topadi. Uning fikriga ko‘ra, konsept tuzilishini kognitiv tahlil qilish, konseptni lingvistik tushuntirishning barcha usullarini aniqlashga imkon beradi. Tilning ichki tizim ya’ni (leksik-grammatik, derivativ, sintagmatik) doirasini belgilash kabi konseptning takibiy qismlarini kognitiv, semantik xususiyatlar va kognitemalar doirasida aniqlashda ishtirok etuvchi madaniyat va qadriyatlarning ahamiyatini tan olish lozim. Ushbu izohlarga ko‘ra, konseptning tarkibi quyidagi chizmada yoritilgan⁹:



1-rasm. Konseptning tarkibi.

Konseptning har tomonlama o‘rganilishi natijasida olimlar konsept tasnifini ishlab chiqishga muvaffaq bo‘lishdi, biroq uning tipologik muammolari hozirgi kunga qadar tilshunoslikda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda lingvokognitologiyada mavjud bo‘lgan tasnif, jamiyatda konseptning aynan muloqot doirasidagi roli, konseptning konseptosferadagi bosh konseptual birliklar bilan uzviy bog‘liqligidagi o‘rni, nutqda ifodalash usuli, tizimli yaxlitligi, ma’lum lingvomadaniy doirada idroklanishi va ifodalanishi, kabi bir qator komponentlar asosida ishlab chiqilgan.

“Madaniy konseptlar-mazmunan bir xil bo‘ladigan hodisa emas. Birinchi navbatda, ular jamiyatdagi u yoki bu ijtimoiy qatlamga taalluqliligi bilan ajralib turadi, boshqacha qilib aytganda, agar jamiyatda ijtimoiy guruhlar aniq ajralib chiqqan bo‘lsa, shu guruhlar konseptosferasi ham mavjud¹⁰”.

A.E. Mamatovning fikriga ko‘ra: “Olamning lisoniy manzarasi” va “konsept” tushunchalarini o‘rganishda ikkita o‘lchovni: til materialini tanlash va uni interpretatsiya qilishni shart qilib olish o‘zini oqlaydi. “Konsept” termini hozirgi

⁹ Дербишева когнитивно-концептуальный подход к изучению кыргызского языка // - Журнал «Вестник КРСУ», 2017 год, Том 17, № 9. – С. 111-115.

¹⁰ M.Saidova., U. Qo‘ziyev//uslubiy qo‘llanma/lingvokulturologiya. Namangan, 2017. – 125 b.

fanda eng faol terminlardan biri, ammo uning mazmuni yetarli darajada aniqlanmagan¹¹”.

Konsept inson ongining tili, ya'ni atrofda namoyon bo'luvchi barcha manzaralarning shaxsning ongida aks etishi va uning tilda namoyon bo'lishidir, u inson xotirasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ongda aks etgan barcha tasvirlarning lisoniy shaklda namoyon bo'lishidir.

Shunday qilib, konsept faqat so'zni anglash orqali emas, balki uning bilan bog'liq bo'lgan barcha tushunchalar, insonning idrokiga aloqador jihatlar va shuningdek, lingvokulturalogik hodisalarni kognitiv talqin qilish orqali ham ko'rib chiqiladi.

Dissertatsiyaning **“Olamning frazeologik va paremiologik tasvirida mehmondo'stlik konsepti”** deb nomlangan ikkinchi bobida o'zbek va ingliz tillardagi frazeologik dunyo tasvirini o'rganishning nazariy muammolari, shuningdek, “mehmondo'stlik” konseptining frazeologik birligida o'zbek va ingliz tillaridagi leksik-semantik va kognitiv maydoni ko'rib chiqiladi.

B.Yo'ldoshev frazeologik birliklarni quyidagicha tavsiflaydi: “O'zbek tilining lug'at tarkibida so'z singari tanlab olish, ishlatish mumkin bo'lgan xotiralar bir butun holda saqlanadigan til birliklari ham mavjuddir. Bunday birliklar frazeologizmlar, frazeologik birlik (FB)lar yoki iboralar deb yuritiladi¹²”.

Muallifning fikriga ko'ra, frazeologizmlar inson tafakkurida butun holda saqlanadi va nutqda tayyor holatda ishlatiladi. Haqiqatdan ham, frazeologik birliklarni grammatik va semantik jihatdan o'zgartirishlarsiz butun bir holatda nutqda qo'llaymiz, ularni turli vaziyatlarga mos holda tanlab olamiz.

B. Yo'ldoshevning ishiga ko'ra, frazeologik birlik tarixi xronologik ravishda quyidagi uch davrga bo'linadi:

- A) Birinchi davr: XVIII asr o'rtalaridan XX asrning 30-yillarigacha;
- B) Ikkinchi davr: XX asrning 30-50-yillariga qadar;
- C) Uchinchi davr: XX asrning 60-yillaridan mustaqillik davri boshlanishiga qadar bolgan davr¹³;

Ushbu vaqt doirasi o'zbek tilida frazeologiyaning rivojlanishi va tadqiqotining turli bosqichlarini aks ettiradi.

Agar biz frazeologik birikmalarni ularning tarkibiy qismlarining semantik barqarorligi darajasi nuqtai nazaridan tizimlashtirishni ko'rib chiqsak, V.V.Vinogradov fikriga ko'ra, uchta turga ajratish mumkin: frazeologik birikma, termoyadroviy va birlik¹⁴.

Qaysi bir xalqning madaniy qadriyatlarining ildizlari chuqurroq bo'lsa, uning tarixiy darajasi va jahon jamoasidagi ijtimoiy holati shunchalik yuqori bo'ladi. Ana shuning uchun, “mehmondo'stlik” konseptini so'z birikmalari, maqollar, idiomatik

¹¹A.E.Mamatov. Zamonaviy lingvistik. — Toshkent.: “Noshir” nashriyoti, 2019. - 168 b.

¹² Yo'ldoshev B., O'rinboyeva D. O'zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 100.

¹³Yo'ldoshev B. O'zbek tilida frazeologizmlarning uslubiy va pragmatik imkoniyatlari, - Samarqand SamDU nashri, 2002. – B. 37.

¹⁴ В.В. Виноградов - Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Лексикология и лексикография: Избр. Тр. – М.: Наука, 1986. – С. 36.

ifodalar orqali, tilshunoslikning leksik qatlamiga tegishli ravishda o‘rganish va tahlil qilish zarur.

O‘zbek tilida “mehmondo‘stlik” – ma’lum bir shaxsning, ijtimoiy guruhning yoki oilaning uyida mehmon kutilganda uni ijobiy kayfiyatda, ulug‘lagan holda kutib olish tushuniladi. Ingliz tilida “mehmondo‘stlik” iborasi esa, faqatgina mezbonga oldindan tanish bo‘lgan shaxsning tashrifi, mehmondorchiligi tushuniladi.

Mehmondo‘stlik muayyan ma’no yukini o‘zida aks ettiradi, bu esa, mehmonning shaxsiy qiymatini tan olish va unga hurmat hamda g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi.

Quyidagi jadvalda o‘zbek va ingliz frazeologik materiallarida berilgan mehmondo‘stlik konseptining tahlili orqali ingliz va o‘zbek til olamining frazeologik tasvirida ifodalaydigan xususiyatlarining turli darajalarda namoyon bo‘lishini aniqladik:

1-jadval

“Mehmondo‘stlik” konseptining jihatlari

Jihatlar	O‘zbek madaniyatida	Ingliz madaniyatida
Salomlashish, ko‘rishish	Quchoqlashib ko‘rishish, qo‘llarni uzatib salomlashib ko‘rishish	Do‘stona quchoqlashish
Punktuallik	O‘rtacha darajada e‘tiborga olinadi	Juda muhim
Shaxsiy chegara	Oz darajada muhim	Asosiy xususiyatlardan biri
Taomga munosabat	Juda muhim	O‘rtacha darajada muhim
Ichimliklarga bo‘lgan munosabat	Choy ichish muhim, ammo alkogol mahsulotlar ifodalanmaydi	Alkogol mahsulotlari qatorida qahva va choy taklif qilinadi
Muloqot	Bag‘rikenglik, ochiqlik bilan olib boriladi	Cheklangan darajada
Dasturxon tuzash	Har doim juda muhim	O‘rtacha darajada muhim (taklif qilingan mehmon uchun maxsus tuzaladi)
Mehmon kutiladigan joy	Odatda uy egalari xonadonida	Ko‘pincha restoran yoki kafe

O‘zbek va ingliz madaniyatidagi mehmondo‘stlik an‘analari o‘zining noyob xususiyatlariga ega bo‘lib, ular mentalitet, tarix va ijtimoiy normalardagi farqlarni aks ettiradi. 1-jadvalda o‘tkazilgan taqqoslashli tahlil ikkala madaniyat mehmondo‘stlikni qadrlashlarini turlicha ifodalashini ko‘rsatadi. Inglizlar muloqotda ko‘proq bosiqlik va odobni saqlashadi, o‘zbeklar esa, ko‘proq ochiq va samimiy bo‘lishadi.

Ikkala madaniyatda ham, dasturxon tuzash muhim rol o‘ynaydi, ular muloqot, bayramlar va samimiy suhbatlar uchun asosiy joy bo‘lib xizmat qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu faqat umumiy tendensiyalarni ko‘rsatadi. Mehmondo‘stlik an‘analari mintaqaga, ijtimoiy guruhga va shaxsiy afzalliklarga qarab o‘zgarishi mumkin.

Shunday qilib, o‘zbek va ingliz madaniyatlari turli tarixiy va madaniy kontekstlarga ega bo‘lsa ham, ularning mehmondo‘stlikka bo‘lgan yondashuvlari

umumiy qadriyatlar, ya'ni hurmat, saxiylik va ijtimoiy aloqalarni qo'llab-quvvatlashni namoyish etadi, bu esa, ushbu madaniyatlar uchun universal va muhim bir madaniy aspekt hisoblanadi.

Ingliz madaniyatida mehmondo'stlik:

Xulq – atvor mezonlari: Inglizlar muloqotda odobni va bosiqlikni yuqori o'ringa qo'yishadi. Salomlashish odatda qisqa, qo'l berish yoki boshni qimirlatish tarzida bo'ladi: *how do you do, nice to meet you;*

Punktuallik: Uchrashuvlar yoki tadbirlarga kechikish odobsizlik hisoblanadi: *against the clock¹⁵, in the nick of time, on the dot¹⁶;*

Choy puli: Restoranlar va kafelarda odatda hisobdan 10-12% miqdorida choy puli beriladi.

Shaxsiy joyga hurmat: Inglizlar shaxsiy chegarani hurmat qilishadi va haddan tashqari ifodali hatti-harakatlardan saqlanadilar: *keep an eye out, keep someone in mind, keep your word¹⁷.*

Choy marosimi: Choy ingliz madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, choyga taklif qilish – bu e'tibor va do'stona munosabatlarning ramzidir: *five o'clock tea¹⁸;*

O'zbek madaniyatida mehmondo'stlik:

Kutib olish va iliqlik: o'zbeklar o'zlarining mehmondo'stligi va bag'rikengligi bilan tanilgan. Mehmonlar quchoqlash bilan kutib olinadi, ularni turli taom va ichimliklar bilan kutib olishadi: *xush ko'rmoq, boshi ko'kka yetdi, bag'rini ochmoq¹⁹;*

Saxiylik: Saxiylik o'zbek madaniyatida ijobiy xulq-atvor sifatida qaraladi. Xonadon egalari mehmonlariga uyda bor narsaning eng yaxshisidan taqdim qilishga harakat qilishadi: *borini baham ko'rmoq, bag'ri butun²⁰;*

Dildan suhbatlar: o'zbeklar ko'ngilochar va samimiy suhbatlarni qadrlashadi: *besh-olti og'iz so'z aytmoq, bir gapirib o'n kulmoq, bir qop yong'oqday shaldir-shuldur²¹;*

Birgalikda dasturxon atrofida o'tirish: Birgalikda dasturxon atrofida birlashish o'zbek madaniyatida muhim rol o'ynaydi. Dasturxon atrofida odamlar yangiliklar bilan o'rtoqlashadilar, turli mavzularni muhokama qilishadi va birgalikdagi muloqotdan zavq olishadi: *dasturxon yozmoq, joy hozirlamoq/tuzamoq;*

Shaxsiy hududni cheklash: o'zbek madaniyatida shaxsiy hududning chegaralari ingliz madaniyatiga qaraganda ancha noaniq. Odamlar ko'proq emotsiyali va harakatchan, jo'shqin (jismoniy) bo'lishi mumkin.

Mehmondo'stlik tushunchasini konsept sifatida o'rganish bir necha sabablarga ega bo'lib, birinchidan, u bevosita xalqimizning madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ikkinchidan, xalqning

¹⁵ <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/on-the-dot>

¹⁶ <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/against-the-clock>

¹⁷ https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/keep-an-eye-out-for#google_vignette

¹⁸ <https://www.gammo.eu/news/the-five-oclock-tea-ceremony-well-show-you-everything>

¹⁹ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. Toshkent, 2022. – B. 68.

²⁰ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. Toshkent, 2022. – B. 65.

²¹ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. Toshkent, 2022. –B. 86.

madaniyatini uning til boyliklari asosida ifodalanishi aynan milliy xususiyatlarga ega bo'lgan konseptlardan biri bu "mehmondo'stlik" konseptidir.

Mehmon kutib olish ingliz va o'zbek xonadonlarida o'xshash, ba'zan esa, farqli jihatli stereotiplarida namoyon bo'ladi. Frazologik birliklarda "mehmondo'stlik" konseptini tahlil qilganimizda, shuni ko'rish mumkinki, o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan, tarixan ildiz otgan xususiyat, ya'ni xonadoniga tashrif buyurgan mehmonni boshqacha xursandchilik kayfiyatida kutib olish qoidaga aylanib ulgurgan. Masalan: mehmonni har doim "ochiq chehra bilan" kutib olish, "xush kelibsiz", "xush ko'rdik" kabi leksemalarning mehmon va mezbon o'rtasida ishlatilishi.

Dissertatsiyaning **"Mehmondo'stlik konseptining etnik xarakter va madaniyatning aksi sifatida"** deb nomlangan uchinchi bobida "mehmondo'stlik" konseptining ingliz va o'zbek frazeologik birliklardagi asliyat va tarjimada voqelanishi, "mehmondo'stlik" konseptining o'zbek tilidan ingliz tilidagi izohi hamda konseptining ikki madaniyatda namoyon bolish jarayonidagi o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilingan.

"Mehmondo'stlik" konseptining ingliz frazeologik va parameologik xususiyatlarini tahlil qilish natijasida "mehmondo'stlik" konsepti bilan bog'liq bo'lgan bir necha iboralarni aniqlashimizga sabab bo'ldi. Ingliz tilida ular quyidagicha beriladi: "please, do me the honour so good as to enter the house you are most welcome", "marhamat uyga kiring, sizning xonadonimizga tashrifingizdan boshimiz ko'kka yetdi", "with open arms" "quchoq ochib kutib olmoq", "hospitality is one of form of worship", "mehmondo'stlik ulug' qadriyatlardandir."

Masalan, "hospitable"- "mehmondo'st" sifati "welcoming", "samimiy", "generous"- "saxiy", "open-handed"- "qo'li ochiq", "sociable"- "kirishimli", "friendly"- "do'slik", "bountiful"- "mehribon", "neighbourly"- "do'stona", "kind"- "ko'ngli ochiq", "warm"- "iliqlik", "helpful"- "yordamga shay"²². "Mehmondo'stlik" konseptual tahlilni qilishdan oldin, tilning leksik tizimida ushbu konseptning to'liq ma'nosini aniqlash zarur. Lug'at ta'rifi kontseptning asosiy qismini tashkil etadi. Ingliz tilining etimologik lug'ati host so'zining kelib chiqishini va uning turli shakllarini quyidagicha tushuntiradi: host – o'z uyida mehmonlarni kutib oluvchi, mehmonxona egasi, lotincha hospes - mehmonlarni qabul qiluvchi, hostis esa, dushman degan ma'nolarni bildiradi. Hospitable sifatdash esa, mehmonlarga mehrini ochar, mehribon deb tushuntiriladi.

Ingliz tilining izohli lug'atida "hospitality" so'zi quyidagicha berilgan: hospitality - mehmonlarni do'stona va saxovatli kutib olish (do'stona va saxovatli qabul qilish, mehmonlarni kutib olish) kabi ma'nolar izoh sifatida keltirilgan²³.


Madaniy aspekt markeri sifatida o'rganilayotgan "mehmondo'stlik" konsepti o'zbek oilalarida go'zal qadriyatlaridan biri sifatida namoyon bo'luvchi jarayon bo'lib, o'zbek xonadoniga mehmon kelganida, uni albatta samimiylik, ochiq chehra va dasturxon yozib kutib olish an'anasi uzoq tarixdan hozirgi zamonaviy kunga qadar yetib kelgan. Odatda, mezbon o'zi uchun qilmagan taomini mehmon

²² Little oxford dict.thsaurus, and Wordpower Guide edited SaraHawker. – Oxford University Press, 2003. – P. 746.

²³ A.S. Hornby The advanced learner's Dictionary of current English, Oxford University Press, 1980. – 1080 p.

uchun tayyorlaydi, mehmonlarga nisbatan ko‘rsatiladigan ehtirom sifatida hatto jonliq ham so‘yadi.

O‘zbek madaniyatida mehmon kutish qadriyatlari K. Mahmudovning “Mehmonnoma” asarida quyidagicha izohlanadi: “...qadim zamonlardan buyon samarqandliklar mehmonni xuddi non-nasiba kabi hurmat qilar ekanlar. Mehmonga atab ataylab maxsus patirlar pishirilgan, nonni tayyorlaganlarida yuzini xamirdan naqshinli qilib bezatganlar. Hatto ba‘zan nonning yuziga sh‘eriy misralar va aziz mehmonlarning nomlari bitilgan. Mehmonlar ketar paytida bayot bitilgan, chiroyli bezatilgan nonlarni ularning qo‘liga tutqazishgan. Ushbu nonlarni mehmonlar e‘zozlab san‘at asari kabi o‘z devorlariga osib qo‘yganlar, yaxshi mehmondorchilikdan esdalik bo‘lgan non yana bezak vazifasini bajarib turgan”²⁴.



2-rasm. “Mehmon” leksemasining ifodalanishi.

Olamning o‘zbek tilidagi tasvirini yanada chuqurroq o‘rganish biz uchun istiqbolli ko‘rinadi, chunki milliy-madaniy kontekstning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish hamda tarjima va talqin qilish jarayonida milliy xususiyatlarni hisobga oladigan lingvistik vositalardan foydalanish zaruriy natijaga erishishga yordam beradi. Xususan, o‘zbek xonadonlarida mehmonlar uchun ajratilgan bitta alohida xonaning har bir xonadonda mavjud bo‘lishi, o‘zbek madaniyatida “mehmondo‘stlik” konseptining naqadar ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi.

“Mehmondo‘stlik” konsepti ifodalangan iboralarni beshta asosiy tematik blokka ajratish imkonini beradi: mehmonlarni qabul qilishga tayyorgarlik, qabul jarayoni, mehmonlarning turlari va ularga bo‘lgan munosabat, madaniy va ijtimoiy jihatlar hamda tashrifning yakuni jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu tasnif mehmondo‘stlikning asosiy bosqichlaridagi mantiqiylik va ketma-ketlikni aniq aks ettiradi.

Mehmondo‘stlik konseptiga oid ingliz va o‘zbek frazeologik birliklarining o‘xshash jihatlarini quyidagi jadvalda berilgan iboralar orqali ko‘rishimiz mumkin:

2-jadval

²⁴ Mahmudov K. “Mehmonnoma” – T.: Yosh gvardiya, 1989. – B. 8.

“Mehmondo‘stlik” konsepti ifodalangan iboralar tahlili.

Aspektlar	Ingliz tilida “Mehmondo‘stlik” konsepti ifodalangan iboralar	O‘zbek tilida “Mehmondo‘stlik” konsepti ifodalangan iboralar
Mehmonlarni taklif qilish jarayoni	get together	davra qurmoq
Mehmon tashrifi, qabul jarayoni	be on cloud nine	boshi ko‘kka yetmoq, sevinchi ichiga sig‘maslik
Mehmon tashrifi, qabul jarayoni	to make someone feel welcome	xush kelibsiz!, xush ko‘rdik!, xush keldingiz!
Mehmonga mezbonning munosabati	be in a hospitable attitude	ochiq chehra bilan, ochiq ko‘ngillik bilan
Mehmonga mezbonning munosabati	to go out of one’s way	yelib-yugurib xizmat qilmoq
Mehmonni qutlab qarshi olish	to roll out the red carpet	qadamingizga hasanot
Mehmonlarning taomlanish jarayoni	enjoy yourself	dasturxonga marhamat qilmoq, dasturxonga
Mehmonlarning vaqtini maroqli o‘tkazmoq	paint the town red	vaqti chog‘lik qilmoq
Mehmonlarni kuzatish jarayoni	hope to see you again	xush qolmoq, xush qoling

